

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda YAHM) ning hajmi 8 619,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022 yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 4,0 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,3 foizga yetdi.




### 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2022 yil	2023 yil	
	<b>I. YAHM</b>	<b>6 915,7</b>	<b>8 619,0</b>	<b>104,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 568,8	8 172,8	103,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	346,9	446,2	106,6
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>6 568,8</b>	<b>8 172,8</b>	<b>103,9</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 700,8	2 191,5	103,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 018,0	2 592,0	103,2
	sanoat	1 353,6	1 854,7	103,3
	qurilish	664,4	737,3	103,1
	<b>Xizmatlar</b>	<b>2 850,0</b>	<b>3 389,3</b>	<b>104,8</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	724,9	871,1	105,4

		Mldr. so‘m		<i>o‘tgan yilning mos davrige nisbatan % da</i>
		2022 yil	2023 yil	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	521,7	633,6	108,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 603,4	1 884,6	103,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 4 281,2 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 foizga yuqoridir.

 | **2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 94,8 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,2 foizini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 26,8 foizni, sanoat tarmog'ining ulushi 22,7 foizni, qurilish sohasida 9,0 foizni va xizmatlar sohasi 41,5 foizni tashkil qildi.

		2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)	
		2022 yil	2023 yil
<b>I. YAHM</b>			
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,0	94,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	5,0	5,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	25,9	26,8
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	30,7	31,7
	sanoat	20,6	22,7
	qurilish	10,1	9,0
<b>Xizmatlar</b>		<b>43,4</b>	<b>41,5</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11,0	10,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,9	7,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	24,5	23,0




## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


2022- yil




2023- yil




YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,0 foiz (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (26,8 foiz), sanoatda 103,3 foiz (22,7 foiz), qurilishda 103,1 foiz (9,0 foiz), xizmatlar sohasida 104,8 foizni (41,5 foiz) tashkil etdi.




2023 yilga YAHM deflyatori indeksi 2022 yildagi narxlarga nisbatan 119,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida 132,6 foiz va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida tarmog'ida 125,0 foiz qayd etildi.



**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida Kichik biznesning  
hajmi va YAHMdagi ulushi  
(jamiga nisbatan %da)**



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirdorlik 5 448,6 mlrd.so'm (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 4 403,4 mlrd.so'm)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 66,7 % (2022- yilning yanvar-mart oylarida 67,0 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirdorlik-ning YAHMdagi ulushi-ning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Yalpi hududiy mahsulot** – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

**Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot** – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo‘shilgan qiymat** – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** – davlat budgetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi** (o‘sish sur’ati) doimiy narxlarda, ya’ni o‘tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o‘tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi** - iqtisodiyotda narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.